

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNAVATSION VA AXBOROT TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Abdullahayeva Mohigul Toshtemir qizi  
Sirdaryo viloyati Sayhunobod tumani  
10-sonli DMTT katta guruh tarbiyachisi  
E-mail: mohigul962@gmail.com.  
Telefon: +99 890 312 94 91*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola mamlakatimzda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, o'yin, axborot texnalogiyalarini qo'llash orqali maktab ta'limiga tayyorlashdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tizimi, bola, ta'lim, tarbiya, aqliy hujum metodi, ko'nikma, malaka, maktabga tayyorlash, innavatsion, axborot texnalogiyalari, audio, video, dastur, animatsiya.

### KIRISH

Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnalogiyalari va innavatsiyalarsiz hech bir soha taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa yosh avlodga **ta'lim** va **tarbiya** berishda zamonaviy axborot texnalogiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, sohaga innavatsiyalarni joriy etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda ta'lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida fikir bayon etilgan, shunngdek zamonaviy axborotlashgan jamiyat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari va tarbiyalanuvchilarning ota-oonalarining oldiga dolzarb vazifalarni qo'yanligi yoritilgan.

### ASOSIY QISIM

Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy **bolani** bejiz idishda turgan suvgaga qiyoslamagan. Suv qaysi rang va qanday hajmdagi idishda turganiga qarab, xuddi shu tusda tovlanadi. Bu haqiqat hozirga qadar o'z mohiyatini saqlab kelmoqda. Zero, e'tibor tufayli bolalarning kelajak poydevori mustahkam quriladi. Ularning murg'ak qalbidagi olam-olam go'zal orzularga qanot bo'lamiz. Zotan, maktabgacha ta'lim tizimiga qamrovni yanada kengaytirish, bolalarga sifatli ta'lim-tarbiya berish asosiy vazifamizdir. Prezident SH.Mirziyoevning ta'biri bilan aytganda, "Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya — biz uchun hayot-mamot masalasidir".



Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan axborotlashtirish tizimi jamiyatimizning barcha sohalari qatorida ta’li m sohasini ham qamrab olmoqda. O’zbekiston Respubliksi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va komunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli hamda 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O’zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmonlari shuningdek,

“O’zbekiston Respublikasidagi Axborot texnologiyalari va komunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi 2018-yil 19-fevraldagi 3549-sonli Qaroriga muvofiq jamiyatimizning boshqa sohalarida bo’lganidek, maktabgacha ta’lim sohasida ham ta’lim jarayonlarida axborot texnologiyalari va komunikatsiyalaridan keng foydalanish ta’lim sifatini ta’minlovchi vositalaridan biriga aylanmoqda.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limning ilk bosqichi bo’lgan maktabgacha ta’lim sohasiga kirib kelishi pedagog hodimlarning oldiga katta ma’suliyat qo’yilishi bilan birga, ularning o’z ustida ishlab, AKT bo’yicha bilim saviyasini, **ko’nikma** va **malakalarini** oshirishni, shuningdek ularning izlanuvchanligi va ijodkorligini talab etadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir necha yo’nalishlarda o’z ifodasini topadi:

- a) axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalar bilan bo’lgan masofaviy ta’lim – tarbiya jarayonida foydalanish;
- b) axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan masofaviy ta’limda pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlik jarayonida foydalanish;
- c) axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan metodik ishlarni tashkil etishda, ta’lim sifatini oshirishda tarbiyachilar bilan ishslash jarayonida foydalanish;

Bolalar, "yuz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rish yaxshiroqdir" degan so'zini tushunish mumkin emas. Bola, aniq shaklli fikrlash bilan, siz bir vaqtning o'zida ko'rib chiqish, eshitish, ob'ekti harakatini baholashingiz mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'lif tarbiya hodimlarini o'qitish qanchalik muhim bo'lsa, bolalarga ular uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarni ko'z bilan ko'rsatish yoki qo'l bilan ushlatish jarayonlarni bajartirish shunchalik muhumdir. Ushbu ish amaliyotida ya'ni mashg'ulotda bolalar bilan, tarbiyachi turli xil materiallardan foydalanadi: didaktik rasmlardan, rasmlar, videolar. Tarbiyachi quyidagi rasmlarning turli xil turlarini elektron ommaviy axborot vositalaridan yuklab olib ularni chiqarib ko'rgazma sifatida foydalanadi. Mashg'ulot davomida: Ovozli materiallar qushlar, sutemizuvchi, o'rmon shovqinlari, yomg'ir, shamol va ekran materiallari slaydlar, alohida mavzuga bag'ishlangan bir qator vidioro'liklar hokazolardan foydalanish maqsadga muvofiq hamda yetarli bilimni tezroq singdira oladi. Texnika vositalari bilan to'la jihozlangan, ko'rgazmalarga boy mashg'ulot, ertaliklar, tadbirlar va chet tillarini o'rgatish bo'yicha to'garak mashg'ulotlari boladagi qobiliyat va iqtidorni yuzaga chiqarishda, uni rivojlatirishda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagি bolalar bilimlariga qo'yiladigan Davlat talablari, "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida bilim va ko'nikmalarni egallagan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari va ulardan to'g'ri foydalana oladigan 6-7 yoshli bola axborot zamonaviy, ilg'or texnologiyalar ta'lif berayotgan mifikta ta'limga jismonan shay, yetarli intelektual ko'nikmalarga ega, psixologik tayyorlangan holda yo'llanadi.



**Multimedia** - bu go'zal, yorqin rasmlarga va vidioro'liklarga ega, bu bolalarga dunyodagi dunyo haqida aytib berishga yordam beradigan vositadir. Taqdimot ovozli, rangli tasvirni birlashtiradi, bu esa axborotni idrok etishni sezilarli darajada yaxshilaydi; Multimedia o'yinlari atrofidagi, erkin faoliyatni o'rgatadi: sayohat o'yinlari, shov-shuvlar, didaktika o'yinlari, Viktorinalar, barmoq o'yinlari. Guruh xonasida noutbuk yoki ichkarida o'tkazadigan vositachilik zalkompyuter, proektor va ekran bilan jihozlansa mavzu to'g'risida malumotni hamda predmetlarni slaydlar,

**audio** yoki **vidioro'liklar** orqali namoyish qilish, eshitgandan ko'ra ko'zlari bilan ko'rishlari, ta'lif berish jarayonimizni sifatli hamda tezkor namoyish qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bola hayotida **o'yin-** bu eng asosiy faoliyat turi hisoblanib, u bola shaxsining shakillanishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Gap kompyuter o'yinlari haqida gap ketar ekan, tarbiyachi o'yinlarning bola yoshi va axloq me'yorlariga mos kelishini hisobga olishi kerak. Shu bilan birga, AKT bolaga interfaol ta'lim berish vositasi sifatida bolaning yangi bilimlarini tez o'zlashtirishiga va dunyoqarashini kengayishiga imkon beradi. Oz navbatida, bolalarda kompyuter va smartfonlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakillantirish, mazkur texnika vositalarining ijobiy imkoniyatlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjudligini nazarda tutish zarur. U faqat ta'limning samaradorligini va zamonaviyligini ta'minlash uchun xizmat qilishi zarur.

**Xulosa** o'rinda shuni takidlsh joizki, axborot kommunikatsiya texnalogiyalari maktabgacha ta'lim tizimida pedagogic jarayonni tashkil etishda, uzlusiz metodik xizmat ko'rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga ulardan noto'g'ri foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayon pedagoglar va ota-onalaridan katta ma'suliyat talab etadi. Zero bugungi kunning dolzarb vazifasi ham keljak egalari bo'lgan yosh avlodga maktabgacha ta'lim bosqichidanoq sifatli ta'lim va tarbiya berishdan iborat.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston pespublikasi Prezidentining Qarori PQ-3261-“Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 09.09.2017
2. To'raqulov X. A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari.- T.;Fan, 2007.
3. [www.caajsruz](http://www.caajsruz)